



O‘G‘UZ LAHJASIDA KO‘MAKCHILAR

Nurmanov Furqat Xayitqulovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2895-4717>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi, uning ayrim o‘ziga xos xususiyatlari, shu bilan birgalikda bu lahjada ko‘makchilarning qo‘llanilish va tutgan o‘rni haqida fikr yuritilgan. O‘g‘uz lahjasiga oid dialektologik materiallardan olingan misollar bilan izohlangan.

Kalit so‘zlar: Lahja, dialekt, sheva, o‘g‘uz, ko‘makchi, sof ko‘makchilar, vazifadosh ko‘makchilar.

Tilimizning boshqa shevalari kabi o‘g‘uz lahjasi ham nihoyatda rang-barang, boshqa til va shevalardan ta’sirlashgan dialekt hisoblanadi. Biz bahs etayotgan yordamchi so‘zlar masalasida ham ilmiy tahlilga tortadigan jihatlar yetarlicha. Ushbu kichik tadqiqotimizda o‘g‘uz lahjasiga xos ko‘makchilarni tahlil qilib, ularning bajaradigan funksional vazifalari, fonetik shakli, qo‘llanilish o‘rnini belgilashga harakat qilamiz.

O‘g‘uz lahjasida ko‘makchilar. Asosan, ot, shuningdek, olmosh, sifatidosh va ravishdoshdan keyin kelib, ularga vosita, sabab, maqsad, payt, makon, atash kabi ma’nolarni qo‘shadi. Tilda batamom leksik ma’nosini yo‘qotib, faqatgina ko‘makchi (ayrim o‘rinlarda bog‘lovchi) vazifasini bajaradigan ko‘makchilar – sof ko‘makchilar: ham boshqa lug‘aviy ma’no anglatadigan ham ko‘makchi vazifasini bajaradigan yordamchi so‘zlar – vazifadosh ko‘makchilar kabi ikki turga bo‘linadi. So‘zlarni o‘zaro bog‘lab gap hosil qilishda kelishiklar qatori ko‘makchilarning ham nihoyatda muhim vazifasi mavjud. Ular kelishiklar o‘rnida ham ifodalanishi mumkin. Milliy tilimiz kabi shevalarda, jumladan, o‘g‘uz lahjasida ham ko‘makchilar yuqorida qayd etilgan vazifada qo‘llaniladi. Quyida o‘g‘uz shevalarida ifodalanadigan ko‘makchilarning o‘zgargan fonetik shakli, bajaradigan vazifalari hamda lahjaga xos dialektal xususiyatlarini misollar asosida tahlil qilamiz.

1. bilan ko‘makchisi – vosita, birgalik, hamkorlik, qurol, harakat yoki jarayonning sodir bo‘lish holati ma’nolarida, shuningdek, bog‘lovchi vazifasida qo‘llaniladi. U badiiy adabiyotda birlan, birla, -ila, -la kabi shakllarga ega. O‘zbek tilining o‘g‘uz shevalarida bi:län, biläm, mi:nän, bi:lä, vi:län, vï:jlän, vulän fonetik shakllarda faol qo‘llaniladi va ular quyidagicha vazifalarni bajaradi: Birgalik ma’nosi: Ešigīñä gül äkämän čim bilän/Sän gätäsän, män qalaman kim bilän/Sän gätäsän jolda joldaš:ñ vilän/Män qalaman öjdä göz ja:šim bilän (qo‘shiq); sut vilän na:nü:ni je (sut bilan nonini ye); Vosita ma’nosida: balangī:z ulli vijlan bolipti - ku? (balangiz kattagina bo‘libdi-ku); Ö:zim biläm ö:zim a:vara (o‘zim bilan o‘zim avora); A:zan biläm kija:qa jo:l a:diñ? (Azon bilan qayoqqa yo‘l olding); Jo:l biläm jü:rmäj, tö:täläp čiqsañ lä:zzä je:täsä (Yol bilan yurmay). Qurol ma’nosi: Ša:i göjñäk tiktim sädäplä vilän/Šunča jalvaraman ädäplä vilän/Qani ajtsin, män balaya nä däpman/Männän qutilmijdi bu gäplä vilän (qo‘shiq); Masofa ma’nosi: Dejra vilän getti ja:rim gämäli/Qajti:p gäsä, huni ja:rim dämäli...(qo‘shiq). Etimologik manbalarda bilan, birla, ila, -



la ko‘rinishidagi ushbu yordamchi so‘z “bir” so‘zi hamda birgalik mazmunini tashiydigan -lä qo‘shimchasidan dastlab birla shakli hosil bo‘lgan. Keyinchalik qadimgi jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -n qo‘shilish orqali birlän shakli hosil bo‘lgani, r tovushi l ta‘sirida l tovushiga aylangani va ularning biri talaffuz qilinmay qo‘yilganidan kelib chiqqanligi izohlab o‘tilgan: bir+lä+n-bir+lä+n-bilän . M.Koshg‘ariyning “Devon”ida ham bu haqida izoh berilganini kuzatishimiz mumkin: birlä (birla) – “birga” ma‘nosidagi ko‘makchi; ol meniñ birlä erdi – u men bilan birga edi. Yengillik uchun rā ni tushirib, bilä deyish ham bor . Demak, diaxron va sinxron ravishda ham adabiy tilimizda ham barcha shevalarda ifodalanib kelinayotgan bila, birla, billa, ila, -la ko‘makchilari tilimizning tabiiy lisoniy o‘ziga xosliklaridan biri ekan, deya xulosa chiqarishimiz mumkin.

1. uchun ko‘makchisi – maqsad, sabab, atalganlik mazmunini ifodalashga xizmat qiladi. Uning -chun shakli badiiy asarlarda qo‘llaniladi va adabiy til uchun me‘yor hisoblanadi. O‘g‘uz lahjasida uči:n shaklida dialektga xos cho‘ziq unli bilan talaffuz etiladi. Sh.Shoabdurahmonov mas‘ul muharrirligida nashr qilingan “O‘zbek shevalari morfologiyasi” kitobida o‘g‘uz shevalarida shevalarda uchun ko‘makchisi o‘rnida jo‘nalish kelishigi formasini (-gä, -kä //-qä) olgan harakat nomi (-moq+ga, maq + qa, mayi+na) ishlatiladi. Shimoliy o‘g‘uz shevalarida: tandir qaqmāqqa say aladākān (tandir solish uchun sog‘ tuproq olar ekan), Almataya kōzini kōrsātmākkā ketti; Xorazmda: kejin barmayī:na oñaj boladi – shaklida izoh berilgan. Haqiqatan ham ushbu uchun ko‘makchisi sabab, maqsad, tegishlilik, oidlik mazmunlarini ifodalash uchun jo‘nalish kelishigi o‘rnida almashinib qo‘llanilishi tilimizga xos tabiiy lingvistik xususiyat sanaladi. Ammo boshqa dialekt va shevalardan farqli jihati o‘g‘uz lahjasida uchun ko‘makchisi deyarli qo‘llanilmasligidir. Buni Z.Xidiraliyevaning “O‘zbek tilining Iqon shevasi” tadqiqoti ham dalillaydi . O‘g‘uz lahjasi tarkibiga kiruvchi Janubiy Qozog‘istonning Iqon shevasini o‘rgangan tadqiqotchi o‘z ishida ko‘makchilardan bilan, sari, singari, kabilarni tahlil qilgan, ammo uchun ko‘makchisi haqida biron dalil keltirmagan. Bu ko‘makchining kelib chiqish etimonida maqsad mazmunini ifodalovchi oč (o‘ch) so‘zi yotadi. Qadimgi turkiy tilda oč so‘zi maqsad, niyat ma‘nosida qo‘llanilgan bo‘lib, unga -on (-o‘n) qo‘shimchasi qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Keyinchalik tilning tadrijiy taraqqiyoti jarayonida o (o‘) tovishi u ga almashgan va uchun ko‘makchisi paydo bo‘lgan . Hozirda oč (o‘ch) so‘zining semantik ma‘nosi o‘zgarganini, “qasd (olmoq)” mazmunida ifodalanishini ta‘kidlash lozim. Shuningdek, “qasd qilmoq” shaklida “maqsad”, “niyat” mazmunini ham ifodalaydi.

2. kabi, singari ko‘makchilari. O‘xshatish, solishtirish, qiyoslash ma‘nolarini anglatadigan ushbu ko‘makchilar -dijn//-dijn//dajn qo‘shimchalari bilan ifodalanadi. Shu o‘rinda adabiy tilda ushbu shaklning -day, -dek, shevalarda esa, -dajin, dejin ko‘rinishlari mavjudligini aytib o‘tish lozim. Masalan: ulli kīši dijn//kišidajin (katta kishidek (yoki katta kishi kabi/singari); qum-čājā mīs dīyn sa:ri qī:zip getipti; qumri qušdijn qanatimni qaqaman; silāriñ dō:vrīñiz dīyn dōvr joq. O‘xshatish, qiyoslash mazmunini ifodalaydigan kabi ko‘makchisining etimologiyasi kib so‘zidan olingan. Qadimgi turkiy tilda -i egalik qo‘shimchasi qo‘shilib, kibi shaklini olgan. Hozirgi kunda i tovushi ä tovushiga almashgan



va kabi ko‘rinishida ifodalanadi. Badiiy adabiyotda va ayrim shevalarda kibi shakli ham saqlanib qolgan .

3. Sayin, sari, keyin, so‘ng so‘ngra, ilgari, burun ko‘makchilari. Bu ko‘makchilar tilimizda payt, zamon, o‘rin, joy mazmunida qo‘llaniladi. O‘g‘uz shevalarida ham shunday funksiyalarda ifodalansa-da, fonetik, dialektal mazmun va vazifasida biroz o‘zgarishlar mavjud. Ularning bu lahjada quyidagicha ko‘rinishlari mavjud: sayi:n, sayin, son, songra, soyun, dayi:n, osin, kejin, kiyin, sāyūm, soj, i:lgari, kez//kiz, sajin, burin, birn kabi. uš tār kundān soj (uch-to‘rt kundan so‘ng); vunnān sōj, tülki ba:γi: ejāsina qī:čqī:radi, ba:γa girjānnān soj tülki ayzina i:kki bunnī dōšiknā üzüm suqī:pti (undan so‘ng, tulki bog‘ning egasiga qichqiribdi, bog‘ga kirgandan so‘ng, og‘zi burnigacha uzum to‘ldiribdi); bular otiraväriptilardan jarimaxšam durip käl uxlapti, bala qī:standi dayi:n jolda açip korādi (bular o‘tiraverganlaridan kal yarim kechasi turib uxlabdi, bola qiziqqanligidan yo‘lda ochib ko‘rdi); väzi:llā aqī:lli a:damni āldinā, varadilā, da:n bolyan gāplāni bir-bir aytadilā (vazirlar aqlli odamning oldiga boradilar, bo‘lgan gaplarni bir-bir aytadilar); unnan soj i:lan balani quvup ušlap aladi, ušlap alyannan kijin balaya aytadi (undan keyin ilon bolani quvib ushlab oladi, ushlab olgandan keyin bolaga aytadi); dañ atmij burin onnilarimizdan turib otiripmiz (tong otmasdan oldin o‘rnilarimizdan turib o‘tiribmiz) ; māni kezim nan galdi (mening ketimdan keldi), hunnan kezīn mān (undan keyin men); sa:čim sajin ömür bārgij xuda:jim...(qo‘shiqdan) . O‘g‘uz shevalarida kejin, kiyin, kez//kiz kabi fonetik shakllarda qo‘llaniladigan keyin vazifadosh ko‘makchisi qadimgi turkiy tildagi “kidin” so‘zidan kelib chiqqan. “Devonu lug‘ati-t-turk”da “kadin” shaklida keltirilgan. Ya‘ni kid+in=kidin – kedin – keyin ketma-ketligida d tovushi y ga almashgan va “oxiri”, “ma‘lum vaqt o‘tgach” mazmunidagi ravishni hamda ravish mazmunini ifodalovchi vazifadosh ko‘makchini tasvirlab keladi. Bu lahjada kez (-in) shakli ham mavjud bo‘lib, o‘zbek tili fonetikasi tarixidagi z-d-y tadrijiy o‘zgarishlarni diaxron “qoldiqlari” mahsuli sifatida hamon qo‘llanilib kelinayotganini qayd etish lozim: kezīn – kedin – keyin. Shuningdek, bu ko‘makchining qisqa kez-, ket- key- shakllari, nafaqat, o‘g‘uz dialektida, balki, boshqa shevalarda ham qo‘llanilib kelinmoqda . “Ilgari” so‘zi “avvalgi vaqtda”, “burun” ma‘nolarini anglatadi. Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “old” mazmunini bildiradigan il va hozirda iste‘moldan chiqib ketgan -g‘aru jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasidan hosil bo‘lgan: il+garu=ilgari.

Xorazm va Shimoliy o‘g‘uz shevalarida yordamchi so‘zlarda ko‘makchilarning farqli jadvali.



1. Jadval*.

Adabiy tilda	Xorazm o'g'uz shevalarida	Shimoliy o'g'uz shevalarida	O'g'uz dialektiga yondosh bo'lgan shevalarda
bilan	bi:lā:vi:lān	bi:lān/bi:lām /mi:nān	mi:nān/mān/
orqali	arqālī:	arqālī:	arqali
qarab	Qarap	qarap	qarap
uchun	učin	uchin	üçin
yarasha	yaraša	yaraša	jaraša
sayin	sayīn	sayīn	sajin
avval	ävval	ävval	äväl
tepa	Dāpā	tāpā	tepā
to'g'ri	do'yrī:	to'yrī:	tuvri/tuvrali
ust	Ust	öst	üst
ost	Ast	ast	ast
ko'ra	kōrā/gōrā	kōrā	kōrā
yon-tomon	yan (tomon)	taman	jaq (jan)
ilgari	i:lgāri:	i:lgāri:	i:lgari
so'ng	son	-	soŋ
beri	bāri:	beri:	beri
old(m)	Ald	ald	ald/āld
o'rta	orta	orta	orta
orqa	arqa	arqa	arqa
ora	Ara	ara	ara
boshqa	bašqa	bašqa	bašqa
ich	i:ç	i:č	ič
tashqari	dāš	ta:š (tašī:da)	tiš
tag(i)	tāy (tāt)	tāg	tūv (tag)
haq	haq	haq	haq
burun			burin
qarshi			qaršī
bu yoq			bi:jaq
sari			sari
keyin	dayīn, osm	kez/kiz	kiyīn
taraf			tarap
bet			vet
qaraganda	qarayanda	qarayanda	qarayanda

Bu jadval o'g'uz shevalarida qo'llaniladigan ko'makchilarning ichki farqlarini, yondosh lahjalar ta'sirini yaqqol ko'rsatib bera oladi.

Umuman, o'zbek tilining o'g'uz shevalaridagi ko'makchilar adabiy tildagi kabi bir xil o'rin va funksional vazifada qo'llaniladi. Lahjaning ichki qonuniyatlari ko'ra fonetik tuzilishida farqlar mavjud. Shuningdek, boshqa shevalarda uchramaydigan ko'makchilar ham mavjud. Nutqda bajaradigan vazifasi qarab ham o'ziga xosliklarni kuzatishimiz mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. -Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. 528 b.
2. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. -Тошкент: -Фан, 1961, - Б.153-154.
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'ati-t-turk. (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғ.Ғуллом номидаги НМИУ, 2017. -В 172.
4. Pardayev A. Grammatizatsiya va yordamchi so'zlar SamDU nashri, 2012. -140 b.
5. Xidraliyeva Z., O'zbek tilining Iqon shevasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent. 2023. -B.101.
6. Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. - 160 б.
7. Пардаев А. Ўзбек тилида кўмакчилар стилистикаси. Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2008. -157 б.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Тошкент: Университет. 2000. -Б.395.
9. Тўйчибоев Б., Хасанов Б. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2004, -Б.188.
10. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек шевалари морфологияси. -Тошкент: Фан, 1984. - В.222-237.
11. O'zbek shevalarining o'rganilishi va dialektal lug'atlarning ahamiyati haqida. Research and education, 2(10), 30–40. Scientific Journal Impact Factor 2023: 5.789 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10019387>
12. O'zbek dialektologiyasida shevalarning tasniflanishiga doir tadqiqotlar xususida. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 133–143. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4082>
13. “Qipchoq” atamasi va qipchoqlar. Journal of New Century Innovations, 41(2), 67–73. <http://www.newjournal.org/index.php/new/issue/view/264> Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/9654>
14. Shevalarni lingvoareal tadqiq qilishning ahamiyati xususida. World Scientific Research Journal, <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/issue/view/89> 21(1), 102–108. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2865>
15. O'zbek dialektologiyasida qipchoq shevalarining o'rganilishi. Til, ta'lim, tarjima. Xalqaro jurnal 2023-yil, 4-son, 4-jild, 71-78-betlar. <https://tadqiqot.uz/index.php/language/issue/view/601>
<https://tadqiqot.uz/index.php/language/article/view/8629/8216>